

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 29 839,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 108,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ga yetdi.



### 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi




## Yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
 <b>I. YAHM</b>	<b>25 857,0</b>	<b>29 839,8</b>	<b>106,0</b>
shu jumladan:			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	24 802,7	28 970,6	106,1
 Mahsulotlarga sof soliqlar	1 054,3	869,2	104,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>24 802,7</b>	<b>28 970,6</b>	<b>106,1</b>
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	<b>8 966,5</b>	<b>9 914,7</b>	<b>103,6</b>
 Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	<b>6 550,3</b>	<b>7 906,6</b>	<b>110,2</b>
 sanoat	4 785,4	5 817,6	107,8
 qurilish	1 764,9	2 089,0	116,7
 <b>Xizmatlar</b>	<b>9 285,9</b>	<b>11 149,3</b>	<b>105,6</b>
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 745,1	2 053,1	109,0
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 258,4	1 506,0	109,7
 boshqa xizmat tarmoqlari	6 282,4	7 590,2	103,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 341,2 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilga nisbatan 3,7 % ga yuqoridir.



### Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va oʻsish surʼatlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 34,2 % ni, sanoat tarmogʻi 20,1 % ni, qurilish 7,2 % ni va xizmatlar sohasi 38,5 % ni tashkil qildi.



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
 <b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
 tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,9	97,1
 mahsulotlarga sof soliqlar	4,1	2,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
 qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	36,2	34,2
 sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,4	27,3
 sanoat	19,3	20,1
 qurilish	7,1	7,2
 <b>xizmatlar</b>	<b>37,4</b>	<b>38,5</b>
 savdo, yashash va ovqatlanish	7,0	7,1
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,2
 bo'yicha xizmatlar	25,3	26,2



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiaga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir. O‘shish sur‘atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 34,2 %), sanoatda – 107,8 % (20,1 %), qurilishda – 116,7 % (7,2 %), xizmatlar sohasida – 105,6 % ni (38,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘shish sur‘atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,0 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,7 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,8 % dan (26,2 %) iborat bo‘ldi.



**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘shish sur‘atlari**  
(o‘tgan yilga nisbatan % da)

2023- yil

2024- yil



5,1 %

**YAHM**

6,0 %



2,5 %

**Qishloq, o‘rmon  
va baliqchilik xo‘jaligi**

3,6 %



6,7 %

**Sanoat**

7,8 %



11,3 %

**Qurilish**

16,7 %



5,8 %

**Xizmatlar**


5,6 %

YAHM o‘shishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i – 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,4 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog‘i – 1,1 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,7 f.p.) va xizmatlar sohasi – 2,0 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘shishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ni tashkil etdi.




**2024- yilning yanvar-iyunida YAHM o‘shishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2024-yil yanvar-iyun oyi uchun YAHM deflyatori indeksi 2023-yil yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 108,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari xizmatlar ko‘rsatish sohasida – 113,7 % va sanoatda – 112,8 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi**  
(o‘tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 18 705,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 15 952,9 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 64,6 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 64,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.



### Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd. soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

15 952,9

64,3 %

2024- yil

18 705,2

64,6 %



## **Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar**

**Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)** – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichidir;

**Yalpi ishlab chiqarish (YAICH)** – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

**Aholi jon boshiga YAHM** – muayyan davrda joriy narxlardagi YAICH (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ)** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat byudjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** – mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**YAHM fizik hajm indeksi** – o‘tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o‘tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

**YAHM indeks-deflyatori** – hudud iqtisodiyotida narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.